

XXI ASRDA O'QITUVCHINING ROLI VA ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

N.M.Muhammadiyeva

- TDPU, 1-bosqich magistri

Z.A.Axmadjonova

— TDPU, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalardan ta'lim tizimida qay tarzda foydalanilayotgani, ko'pgina manbalar, shu jumladan, maktab ta'lim tizimiga ham elektron jihozlarning kirib kelishi jarayonida o'qituvchining roli qay darajaga tushgani yoki, aksincha, yuksalganini aniqlash haqida batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, elektron manbalar, pedagog, ta'lim tizimi, sun'iy intellekt, gadjetlar, zamonaviylik.

РОЛЬ ПЕДАГОГА В 21 ВЕКЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается подробный анализ того, как в настоящее время используются развивающиеся цифровые технологии в системе образования, чтобы определить, насколько снизилась или, наоборот, возросла роль учителя в процессе внедрения электронных устройств во многие ресурсы, в том числе и в систему школьного образования.

Ключевые слова: цифровые технологии, электронные ресурсы, учитель, педагог, система образования, искусственный интеллект, гаджеты, современность.

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE 21ST CENTURY AND THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION

Annotation. This article will analyze in detail how digital technologies that are currently developing are used in the educational system, how many sources, including the school education system, determine to what extent the role of the teacher in the process of penetration of electronic equipment has fallen or, conversely, have risen.

Keywords: digital technology, electronic resources, teacher, educator, educational system, artificial intelligence, gadgets, modernity.

Ta'lim insonning axloqiy tarbiyasiga va uning har tomonlama kamolotga yetishi uchun yordam berishi lozim. O'qitilayotgan har bir narsa ta'lim jihatdan ma'lum bir qiymatga ega bo'lishi bilan birga, axloqiy ahamiyatga ham egadir. Ta'lim jarayoniga eng ko'p o'z hissasini qo'shadigan insonlar, shubhasiz — o'qituvchi, pedagoglardir.

Taniqli va hurmatga sazovor o'qituvchilar turli davrlarda va barcha xalqlarda bo'lgan. Misol tariqasida chexialik pedagog-gumanist Y.A. Komenskiyni keltirishimiz mumkin. U o'z xalqiga dunyoning to'plangan donoligini berishni orzu qilgan. Maktab uchun o'nlab darsliklar, 260 dan ortiq pedagogik asarlar yozgan. Bugungi kunimizda maktablarga buyuk chexialik pedagogning nomi bilan kirib kelgan “dars”, “sinf”, “ta'lim” kabi so'zlarni har bir o'qituvchi qo'llab kelmoqda.

Mashhur nemis yozuvchisi I. Gyotening fikricha, “Bizga ta'lim berayotganlar haqli ravishda bizning o'qituvchilarimiz deb ataladilar, ammo bizni o'qitayotganlarning har biri ham bu nomga loyiq emas”. Demak, hamma ham o'qituvchi degan sharaflı nomga loyiq bo'la olmas ekan. O'qituvchi deganda ko'z oldimizga kimni keltirishimiz lozim yoki, boshqacharoq qilib aytganda, XXI asr o'qituvchisi qanday xususiyatlarga va qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak?

XXI asr o'qituvchisi ... Bizning fikrimizcha, uning oldida kelajak talabi va asrlar davomida shakllanib kelgan jamiki fikrlar, tushunchalarni uyg'unlashtirishdek ulkan vazifa turibdi. Shu o'rinda Konfutsiyning ham bir fikri bor: “Eskini o'zlashtirgan, yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi”, ya'ni pedagog ham tarix, madaniyat va millatning qadriyatlarini unutmasligi va shu bilan birgalikda zamonaviy texnologiya va ta'lim sohalaridan xabardor bo'lishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi moslashuvchan bo'lishi lozim, chunki kundan-kunga yashash tarzimiz, hayotimiz tezlashib bormoqda, yangidan-yangi ma'lumotlar oqimi oshib bormoqda. Kezi kelganida o'qituvchi ham rassom, ham artist, kerak bo'lsa ham musiqachi va shoir ham bo'la oladi. Aynan shuning uchun ham o'qituvchi hayotda bir yo'nalishga tushib olishi kerak, negaki o'qituvchi — bu boshqalarga o'rnak bo'la oladigan shaxs, u bizga nafaqat o'z sohasidan va fanidan, balki hayotdan ham, boshqa jamiki yaxshiliklardan ham saboq beruvchi hisoblanadi, ya'ni o'qituvchining maqsadi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, bundan tashqari, har bir bolaga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berish, o'zlarini to'g'ri baholay olishlarini o'rgatishdan ham iborat desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchilariga ishonarli do'st sifatida qolishi kerak, barcha narsalarga diqqatli va barchaga birdek adolatli bo'la olayotganligi undan maslahat olishlari, uning mehri va chin yurakdan qayg'urib g'amxo'rlik qilishida ham namoyon bo'ladi. “O'qituvchi qattiqqo'l va talabchan bo'lishi bilan birga, adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina u o'z o'quvchilari orasida obro' qozonishi mumkin”, — deb ta'kidlaydi mashhur nemis pedagogi Adolf Disterveg.

Zamonaviy o'qituvchi faqatgina o'quvchilarga dars berish bilangina cheklanib qolishi kerak emas, balki o'zi ham ulardek o'qib-o'rganishi lozim. Boshqacharoq qilib aytganda, o'qituvchilik kasbida to'xtab qolish mumkin emas, aksincha, doimo izlanishda va o'z ustida ishlash kelajakda samarali natijalarni bera oladi.

Umumiy qilib aytganda esa, hozirgi davr talabidagi o'qituvchi har tomonlama o'qimishli va savodli, kreativ, ijodkor, kommunikativ, mas'uliyatli, vaziyat va pozitsiyalar o'zgarishiga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bunday inson xuddi pedagogika va psixologiyaning erishgan eng yangi yutuqlari bilan "qurollangan", eng so'nggi fan va texnikalardan xabardor bo'lishi kerak deb hisoblanmoqda.

Fan va texnika, zamonaviy texnologiyalar haqida gap ketganda, shubhasiz, barchaning xayoliga "internet" atamasi ham keladi, negaki, hozirgi raqamli texnologiyalar davrini ushbu dunyoni qamrab olgan "o'rgimchak to'ri"siz tasavvur qilish kundan-kunga qiyinlashib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi kunimizda deyarli barcha sohalarda, xususan, ta'lim sohasida ham zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda, bir qator qulayliklar va yangiliklar yaratilmoqda, shulardan biri sifatida sun'iy intellektni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Sun'iy intellekt ixtirosi XX asrning o'rtalarida amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning keskin ommalashuvi XXI asrda sodir bo'ldi. Bugungi kunimizda turli xil sun'iy intellekt platformalari, saytlari mavjud bo'lib, eng mashhur va ommabopi hisoblanadigani — "ChatGPT" dir.

2022-yil noyabr oyidan boshlab "ChatGPT" ning tanilishi chaqmoq tezligida dunyoga, ayniqsa, ta'lim dunyosiga yoyildi. Ushbu texnologiya birgina tugmani bosish orqali turli xil sohalarda — murakkab masala va misollarni yechishda, IELTS yuqori darajadagi insho yozishda va boshqa-boshqa yo'nalishlarda faoliyat olib bora olish qobiliyatiga ega ekanligi ta'lim beruvchilarni ham hayratga, ham havotirga solib qo'ydi. Distervegning "yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishiga o'rgatadi" degan fikri aynan pedagoglar va sun'iy intellekt orasidagi tafovutni tasvirlayotgandek go'yo, lekin bu bilan qaysidir tarafni tanqid qilish niyatimiz yo'q, shunchaki shu o'rinda savol tug'iladi: o'quvchilarda bunday ixtiro mahsuli bor ekan, o'qituvchilar qanday o'qitish texnikasidan foydalanishlari kerak?

Til o'rganish bugungi kunimizdagi eng ommalashgan va ko'pgina sohalarning asosiy talabi bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalar o'rnatishda ham tilga bo'lgan ehtiyoj kuchaygani sari til o'rganish va tarjimonlik sohalarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish jadallashdi. Bular qatoriga internet tarmog'idagi avtomatik tarjimonlar, onlayn til o'rganish platformalari kabilar kiradi. Sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan botlar esa virtual suhbatdoshlarga ega bo'lish imkoniyatini berib, hattoki, masofadan turib o'rganayotgan tilingizni uning mutaxassisi bilan yoki ona tili shu til bo'lgan insonlar bilan online suhbat qilish

imkoniyatini ham beradi. Bularning har biriga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

1. [Duolingo](#): ushbu til o'rganish platformasi o'yin metodiga asoslangan bo'lib, Sun'iy Intellekt yordamida sizning til o'rganish darajangizni tekshirib boradi va shaxsiy fikr-mulohazasini bildiradi. U 30 dan ortiq til, shu jumladan, ingliz tilini ham o'rganish imkoniyatini beradi.
2. [Memrise](#): yana bir ommalashgan til o'rganish platformasi. Ushbu platforma so'z boyligi va grammatikani eslab qolish va rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, 20 ta til o'rganish kurslarini o'zida jamlagan va shubhasiz ular orasida ingliz tili ham mavjud.
3. [HelloTalk](#): til o'rganishda uni "native speaker" lar bilan bepul online muloqot qila olish imkonini beradi. Bu platforma yozma xabarlashish, ovozli xabar jo'natish va video qo'ng'iroqlarni ham amalga oshirish funksiyasiga egadir.

Yuqorida bugungi kunimizda til o'rganish jarayonidagi foydalanilayotgan, uning samaradorligini oshirishda ishlatilishi mumkin bo'lgan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan turli funktsiya va imkoniyatlarga ega bo'lgan online til o'rganish platformalari, botlar, avtomatik tarjimonlar haqida, ularning hozirgi davr uchun ahamiyati va rivojlanishi haqida so'z bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida ushbu zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, ular asosida ta'lim rivoji uchun hissa qo'shadigan dastur va tizimlarning ishlab chiqilishi nafaqat talaba yoshlarga, balki pedagoglar, professor-o'qituvchilarga ham katta imkoniyatlar yaratib beradi. Talabalar va o'qituvchilar hozirda zamon talabiga mos bo'lgan so'nggi dastur va ilovalar, raqamli smart texnologik usullardan xabardor bo'lishlari, ulardan foydalanishni bilishlari va amaliyotda ham o'z sohalari doirasida qo'llashlari bilimlarini yanada rivojlantirish va mukammallashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Коменский Я.А. Великая дидактика / Я.А. Коменский [и др.] // Педагогические наследие; сост. В.М. Кларин, А.Н. Джуринский. — М.: Педагогика, 1989. — С.11— 106.
2. М.В. Жернакова Роль и миссия учителя в современном образовательном процессе // Молодой ученый. — 2015. — №10.1. с. 8-10
3. В.Ю. Горохова Изменение роли учителя в современной школе // Молодой ученый. — 2016. — №14. — с. 528-530.